

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rne va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining representativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbonov	
O'zbekiston tog' zonasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250

QISHLOQ XO'JALIGI

N.A.Abdugalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyalik urug'lik fondini tayyorlash	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rne	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rne	276
M.X.Raxmatulloyev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Турдалиева	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



UO'K: 911:712.12(045)

**LANDSHAFTLARDAN FOYDALANISHDA TURLI YONDASHUVLARNING
QO'LLANILISHI VA TIZIMLI YONDASHUV****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ПОДХОДОВ И СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В
ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЛАНДШАФТОВ****THE USE OF DIFFERENT APPROACHES AND A SYSTEMATIC APPROACH IN THE
USE OF LANDSCAPES****Xasanov Primjon Ashurovich** 

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada landshaftlar va uning xilma-xilligi hamda undan foydalanish istiqbollari haqida so'z boradi. Shuningdek, landshaftning geografik bilimlar tizimidagi o'rni, fundamental va amaliy ahamiyati tahlil qilinib, landshaftlardan foydalanishda yondashuvlarning o'ziga xos tomonlarini aniqlashning asosiy usullariga urg'u beriladi. Yondashuvlarning turli tumanligi, biroq barchasi inson omili uchun xizmat qilishi yoritilgan. Bundan tashqari atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация

В статье говорится о ландшафтах и их разнообразии, а также перспективах их использования. Также анализируется роль, фундаментальное и практическое значение ландшафта в системе географических знаний, подчеркиваются основные методы определения конкретных аспектов подходов к использованию ландшафтов. Описаны различные подходы, но все они учитывают человеческий фактор. Кроме того, представлены предложения по охране окружающей среды.

Abstract

The article talks about landscapes and its diversity, as well as prospects for its use. Also, the role, fundamental and practical importance of the landscape in the system of geographical knowledge is analyzed, and the main methods of determining the specific aspects of the approaches to the use of landscapes are emphasized. The various approaches are covered, but they all serve the human factor. In addition, proposals for environmental protection are presented.

Kalit so'zlar landshaftlar, yondashuv, foydalanish, antropogen, nazariy, atrof-muhit, ekologik, metodlar, muhofaza etiladigan hududlar.

Ключевые слова: ландшафты, подход, использование, антропогенные, теоретические, экологические, экологические, методы, охраняемые территории.

Key words: landscapes, approach, use, anthropogenic, theoretical, environmental, ecological, methods, protected areas.

KIRISH

Jahonda sodir bo'layotgan global ekologik vaziyatlar jamiyat oldiga bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarga oziq-ovqat, bio xilma xillikni saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish kabi bir qator vaziyatlar misol bo'lib, ularni tartibga solish va tizimli tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tabiat va inson omili o'zaro aloqadorlikda rivojlanib, ushbu aloqadorlik tomonlarining qay yo'sinda borishi bilan UNEP dasturi shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasi BMT qoshidagi UNEP xalqaro dasturiga a'zo davlatlardan biridir. Dastur dunyoda sodir bo'layotgan global muammolarni o'rganuvchi organ bo'lib, atrof muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish va boshqa bog'liqlik jihatlarini o'rganadi. Jumladan, ko'pgina tabiiy geografik jarayonlarni aniqlash va bartaraf etish ishlarida, insoniyat oldida tabiatga nisbatan to'g'ri

GEOGRAFIYA

yondashuvlarni targ'ib qiladi. Hozirgi davrda landshaftlarga nisbatan turlicha yondashuvlar qo'llanib kelinmoqda. Kishilik jamiyati taraqqiy etarkan, ozmi ko'pmi xo'jalik tarmoqlarida (qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, o'rmon xo'jaliklari va b.) landshaftlardan foydalanish shakli shamoyillari, omillari va yondashuvlar o'ziga xos talab va taklifi bilan yondashishi ko'zga tashlanadi. Biroq barcha sohalarida tizimli yondashuv va uning hayotga tadbiiq etilishida boshqa o'ziga xos yondashuvlar bilan integratsiyaga uchrashi hamda obyektga nisbatan qo'llaniladigan yondashuvlar tizimlashgan bo'lishi lozimligini ko'rsatmoqda. Tabiiy muhitda landshaftlardan oqilona foydalanish imkoniyatining ko'zlanishi, albatta eng maqbul yo'nalish va yondashuvlarni qo'llashni ko'zda tutadi. Landshaftlarni o'rganishda tarkibiy-genetik, funksional-dinamik, geokimyoviy, geofizikaviy, ekologik, estetik landshaft va tizimli tahlil yo'nalishlarning integratsiyalashuvi, yondashuvlarning nafaqat nazariy hamda amaliy balki tasnifiy jihatlarida ham namoyon bo'ladi. Geotizimlarda keng ko'lamdagi tadqiqotlar, foydalanish istiqbollarini yondashuv va qarashlarga mos tizimlashtirish, yondashuvlarining modifikatsion o'zgarishlari asosida kechishi bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Landshaftlarni tadqiq etishda turli yo'nalishlar va yondashuvlarni yuzaga kelishida A.Gumbold, V.V.Dokuchayev, A.Tensli, K.Troll, L.Bertalanfi, V.I.Vernadskiy, B.B.Polinov, A.I.Perelman, M.A.Glazovskaya, N.L.Beruchashvili, D.Xarvey, A.A.Grigoryev, N.A.Solntsev, A.Y.Reteyum, F.N.Milkov, Y.G.Saushkin, V.B.Sochava, A.G.Isachenko, A.A.Krauklis, S.D.Murayevskiy, Y.Demek, V.M.Chupaxin va boshqalarning ilmiy tadqiqot-yondashuvlari asos bo'lib xizmat qilgan. Dastlab tabiiy geografik muhitga to'laqonli obyektiv qarash lozim ekanligini anglash yigirmanchi asr boshlariga borib taqaladi. Ushbu jarayonlarga A.Gumbold, V.V.Dokuchayev, K.Troll va boshqa olimlar tadqiqotlarida turtki berishgan. Obyektiv qarashlarning rivojlanishi sababli, landshaftlar bir butun tizim sifatida qarala boshlandi.

K.Troll (1939) tomonidan ilgari surilgan "landshaft ekologiyasi" tushunchasi tub burilish yasagan holda landshaft tamoyillarining gorizantal-geografik-strukturaviy yondashuv, vertikal-ekologik-funksional yondashuv asosida tushunish lozimligini ko'rsatib, yondashuv esa o'z davrining ilmiy yangiligi edi.

A.A.Krauklis (1979) tarkibiy – genetik yo'nalish tabiiy geografik rayonlashtirish bilan birgalikda landshaftlarni o'rganishda "makroskopik", funksional-dinamik yo'nalish esa "mikroskopik" yondashuv deya ta'riflagan [14;]. Landshaftlar holati, dinamikasi, invarianti va maxsus faoliyati kabi tushunchalar yuqoridagi yondashuvlar asosida rivojlandi.

Landshaftlar geokimyosi asoschisi sifatida B.B.Polinov va uning izdoshlari A.I.Perelman, M.A.Glazovskaya tilga olinadi. B.B.Polinov (1932) fikricha landshaft-kimyoviy moddalarning migratsion jarayonlari kechadigan hududiy qismidir. Landshaftlarda kechadigan geokimyoviy jarayonlarning modda va energiya oqimi bo'ylab harakatini aniqlash juda ko'plab ilmiy tadqiqot sohalarida qo'llanilimoqda. Bu esa xalq xo'jalik tarmoqlarida foydalanish yaxshi samara berishini anglatadi.

Landshaftlar geofizikasi yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan olim N.L.Beruchashvili (1990) ta'rifida "landshaft-tasviriy tuzilmani tashkil etuvchi va hududning o'ziga xosligini belgilovchi tabiiy, tarixiy, ma'daniy, an'anaviy ekologik boshqaruv va boshqa komplekslarning o'zgaruvchan birikmasi sifatida tushunadi" va geomassa atamasini qo'llashni tavsiya qiladi [1,9;].

L.Bertalanfi (1969) tizimlar umumiy nazariyasini ishlab chiqib, metodologik asosini tuzdi. Uning fikricha – "hodisa va jarayonlar bilan emas balki ularni tizimini o'rganish kerak"ligi aytilgan bo'lib, yondashuvlarning tadqiqot objekti o'xshashlik tomonlarini aniqlashni nazarda tutadi. Bu haqida V.B.Sochava geografiya va ekologiya fanlarining uzviy bog'liq tomonlarini va eng mashhur bo'lgan geotizim ta'limotini asoslaydi. Olimlardan N.A.Solntsev, R.Charli (1971), Y.Demek (1977), A.Y.Reteyum (1972), A.G.Isachenko (1991) kabi tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlarida shunga urg'u berib o'tishgan. Yondashuvlarning keng qo'llanilishi landshaftlardan samarali foydalanish va tabiatga bezarar yondashuvlarni qo'llashni taqazo etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Landshaftlarni loyihalashda tizimli yondashuvni qo'llash ancha qo'l keladi. Birgina, katta maydonga ega bo'lgan obyektlarni xaritalash va har bir qismini sinchiklab o'rganish, tahlil qilish orqali xo'jalikning har bir sohasidagi yer maydonlardan unumli foydalanish shart sharoitini

ta'minlaydi. Provardida esa, atrof muhit muhofazasiga oid, resurslardan oqilona foydalanish masalasida tabiat qonunlariga mos tushadi. Ayniqsa, landshaftlarni aniqlash va o'rganishda tadqiqotchi olimlarning yondashuvlari har xil, o'ziga hos o'rinlarga ega. Ilmiy yondashuvlarning tabiiy geografik jihatlari V.V.Dokuchayevning (1883) tadqiqotlarida uchraydi. Landshaftlar haqida fikrlanmagan bo'lsada, ilmiy adabiyotlarida landshaft va uning qismlariga "bilvosita" alohida to'htalib o'tgan. Tadqiqotlarida tarixiy, genetik, geomorfologik, geokimyoviy, ekologik va boshqa ilmiy yondashuvlari landshaftlarni o'rganishda muhim asos bo'lmoqda.

K.Troll (1971) ta'rificha "landshaftning ma'lum bir qismida hayotiy jamoalar va ularning atrof-muhit o'rtasidagi asosiy murakkab sabablarini munosabatlarini o'rganishdir" deb landshaft ekologiyasining ayrim jihatlari nazarda tutgan. Bu munosabatlar mintaqaviy ravishda ma'lum taqsimotda va turli xil kattalikdagi tabiiy rayonlashtirishda ifodalanadi [13;]. Mazkur yo'nalish landshaftlarda hodisa va jarayonlarning kechishi landshaft ekologiyasi hamda o'xshash aloqador jihatlarni va o'ziga xoslik tomonlarini ochib berdi. Olimning mazkur qarashlari orqali yondashuvlarning integratsiyalashuvi va aynan bir chegara belgilab bo'lmashligini balki yondashuvlarni tizimli tahlil asosida idrok qilish obyektiv mujassamlikka yetaklashini aniqlaydi.

Landshaftning ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan kelib chiqib A.G.Isachenko quyidagicha ta'riflaydi: "Landshaft - mahalliy ko'lamda geotizimlarning o'ziga xos yig'indisidan iborat bo'lib, o'zining zonal va azonal belgilari bo'yicha bir butun hamda genetik jihatdan yaxlit geotizimdir". Ushbu ta'rifga asosan olimning tadqiqotlarida tizimli tushunish munosabati aytib o'tilgan va ta'rif ancha mos tushadi. Agar geografiya fanining nodir xususiyati muammoga kompleks yondashuv bo'lsa, ushbu yondashuvning o'zagini o'zaro a'loqadorlik, o'zaro bog'langanlik tashkil qiladi. Shu bois yondashuvlarda tizimli yondashuv zarur [15; 56 b.]. Landshaftlarning turli yondashuv va tadqiqotlardan olingan xulosalar shuni ko'rsatmoqdaki, mazmun mohiyati tabiiy hududiy kompleks majmuidan tashqari - strukturasi, dinamik xossalari, landshaft barqarorlik indeksi, tashqi ta'sirlarga nisbatan chidamliligi va eng ustuvor jihatlarni hisobga olinishni taqazo etadi. Bu esa landshaftlarda unimli foydalanish samaradorligini belgilaydi. Xususan tarixiy, genetik, tizimli, morfologik yondashuvlar asosida juda aniqlikka ega ma'lumotlar olinishi, kartografik, qisosiy, matematik, statistik, statsionar, aerokosmik metodlar orqali yanada mukammallashadi. Umuman olib qaraganda yondashuvlarning bir nechitasi qo'llanilishi hamda uning tizimli tahliliy xulosasi aniqlik darajasi yuqori bo'ladi. Metodologik yondashuvni amalga oshirishda landshaft xaritasini tuzish hamda landshaftlarni aniqlash asosida ma'lum bir hududning keyingi tahlili ishlab chiqiladi. Landshaft xaritalashtirishda "o'tmish-hozir-kelajak" variantida umumiy xulosa, tizimli yondashuv asosida kechsa tabiiy geografik jarayon va vaziyatlarni yechimini izlashda yordam beradi (1-rasm).

Atrof muhit muhofazasida landshaft komplekslaridan foydalanish borasida konstruktiv yondashuvni talab qiladi. Landshaftlardan foydalanish imkoniyatlari sohasiga qarab toifalarga bo'linadi. Har bir kompleksda foydalanish ko'lamini tizimli landshaft yondashuvi asosida ekologik tamoyillarga mos integratsiyalashuvi kuzatilib, bir qancha yondashuvlarning umumiy xulosasigina aniq chiqadi. Landshaft boshqaruvi kontseptsiyasi so'nggi yillarda global ravishda ommalashayotgan muhim amaliyotlardan hisoblanadi. Yondashuvlarning har hil variantda namoyon bo'lishi, juda ko'plab talqinlar asosida kechayotgan bo'lsada, keng qamrovlarning barchasi inson va uning keyingi istiqbollari haqidadir. Yurtimizda birgina bio xilma xillikni saqlashga doir chora tadbirlar asosida juda katta ko'lamda ishlar olib borilmoqda. Xususan, "Qizil kitob"ga yangidan kiritilgan flora va fauna vakillari sonining ortishi tizimli, tarixiy-genetik yondashuvlarga yaqqol misoldir. Qolaversa yana, global iqlim o'zgarishi, atmosfera havosini ifloslanishini oldini olish, tuproqlar degradatsiyasi, cho'llashish kabi muammolarning oldini olishda ham yondashuvlarning integratsiyalashuvi va tizimli tahlil qo'l keladi.

1-rasm. Landshaftlardan turli yondashuvlar asosida foydalanilishi.

LANDSHAFTLAR (tabiiy, antropogen, agrolandshaft, urbolandshaft va b.)

FOYDALANISH-turli maqsadlarda

YONDASHUVLAR - tabiiy geografik, kompleks, ekologik, majmual, sintezli, tizimli, tarixiy, genetik, bioxilma-xillik, qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati, qurilish-muhandislik, konstruktiv, estetik, turizm-rekreatsiya, iqtisodiy-ijtimoiy va b.

tasniflash, baholash, prognozlash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa, yechim, yashil zona, yashil yo'lak, tizimli landshaft boshqaruvi.

Izoh: muallif tomonidan ishlangan.

Hozirgi kundagi ekologik muammolarni oldini olishda, insoniyat boshqa bir sivilizatsion ko'rinishga, shaklga o'tishini talab qiladi. Bunga esa jamiyatning barcha qatlami bir xil javob qaytarmaydi. Masalan ba'zi davlatlar xalqaro kelishuvga ko'ra ishlab chiqilgan konsepsiyalarga amal qilmaydi, yoki to'liq emas. Iqtisodiy, ijtimoiy muhit bazida to'sqinlik qilishi, kishilik jamiyatida dastlab tabiatga nisbatan ekologik ongni rivojlantirish bilan vaziyatga tayyorlik darajasini oshirish mumkin. Ayrim mintaqalar yoki hududlarda landshaftlar u yoki bu qismi o'zgartirilishi va o'zgarishi kuzatilib, muvozanat buzilgan. Landshaftlardan foydalanishda yondashuvlarning turli-tumanligi, ba'zi hollarda to'kis javob bermaydigan holatda baholanib hayotga tadbiq etilishi ham uchraydi. Yondashuvlarning barcha sohalarida iqtisodiy tomondan birinchi galda ko'rilishi ham noto'g'ridir, chunki tabiatga ma'lum bir obyektidan yoki kelajakdagi vaziyatdan keladigan zararli tomonlari masalani nafaqat davlat, mintaqalar va jahon bo'yicha qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi. Bunda landshaft komplekslarini tizimli yondashuv bilan aniq va izchil yoritilgan, baholashga ega bo'lgan xulosa qilish muhimdir.

Dunyo miqyosida olib borilayotgan landshaft tadqiqotlarida landshaft boshqaruvi tahlili bilan Jeffri Sayer (2013) - yondashuvlarning har tomonlama qulay, ijtimoiyligi yuqori bo'lgan izlanishlar olib bordi. Uning ishlab chiqqan landshaft boshqaruvi tahlili 10 ta tamoyillarga asoslanadi [3,5,6;]. Tadqiqotda landshaftlardan foydalanishda hozirda mavjud bir qator muammolarga tizimli yondashuv asosida yechim topish haqidagi fikrlari aks etgan, biroq insoniyat oldida turgan ekologik muammolarni birgina yondashuv bilan tahlil qilib bo'lmaydi. Chunki yuqorida aytilganidek insoniyatning sivilizatsion odimlashi turli hududlarda turlichaligi, masalani qiyinlashtiradi. Bu bog'liqlik xo'jalik tarmoqlari, aholi manzilgohlari, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, tog' kon sanoati, o'rmon xo'jaligi, milliy bog', qo'riqxonalar va boshqa hududlarda inson omilining tabiat bilan hamnafasligi ekologik tamoyillarga to'g'ri keladi. Moslashuvchan integratsiyali landshaft boshqaruv tizimi, landshaftlardan foydalanishdagi barqarorlikka erishish yo'lida etalon yondashuv hisoblanadi. Tabiiy muhitda landshaftlarning ma'lum bir qiyofasi, tabiiy hamda antropogen omillarning o'zaro uyg'unlashuvidan hosil bo'ladi. Albatta, fazoviy texnologiyalar (GAT) asosida juda ko'plab yondashuv va loyihalarning tezkorligi oshishi, aniq ma'lumotlarning yig'ilishi osonlashuvi kuzatiladi. Faqat hududning tahliliy yondashuvi

har bir komponentlarning alohida xulosasiga tayanadi, chunki bitta komponentga tegishli jarayon boshqa komponentga sezilishi kam yoki sekin bo'lishi mumkin. Landshaftlarning har bitta tarkibiy qismidagi xususiyatlarni hisobga olib, antropogen ta'sir ko'lamini aniqlash bilan yondashuv shakllantiriladi [8,10;]. Landshaftlarning tog' jinslari, relyef, tuproq kabi komponentlari foydalanish asnosida yondashuvlarning ta'sir doirasi sekin yoki kamroq bo'lib, hudud va yondashuv sohalari muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi qolgan tarkibiy qismlarga nisbatan ushbu qismlarda barqarrorlik kuzatiladi. Shuningdek, hududning landshaft xaritasini ishlab chiqishda har bir komponentning hudud bo'yicha ma'lumotlari tahlil qilinadi. Baholash ishlari yondashuvning asoslovchi qismi hisoblanib, baholanayotgan hududning olingan xulosaviy ma'lumotlari asosida prognozlashtirish ham mumkin.

Qishloq xo'jalik tarmoqlarining shakllanishi, landshaftlardan foydalanish ko'rsatkichi eng yuqori jabha sifatida qaraladi. Jumladan, O'zbekiston hududining katta qismi qishloq xo'jaligida band bo'lib, qishloq xo'jaligida yaroqli yerlarning katta qismi fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklariga bo'lingan. Qishloq xo'jaligi landshaftlarini tadqiq etishda boshqa yondashuvlaridan farqli tomoni, baholash davri qisqa bo'ladi. Chunki, masalan yigirma yil oldin baholanib ishga solingan yerlar vaqt o'tib sho'rlanishi, grunt suvlar sathi ko'tarilishi, tuproq bonitetining kamayishi, hosildorlik tushishi singari jarayonlar sababchi bo'ladi. Agrolandshtaftlardan foydalanish yondashuvi eng qadimiy sohalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston hududida dastlabki qishloq xo'jaligi maqsadlarida agroiklimiy rayonlashtirish ishlari L.N.Babushkin (1964), N.A.Kogay tomonidan amalga oshirilgan. Umuman olganda landshaftlardan foydalanishda eng ko'p yondashuvlar qo'llanilishiga ega soha qishloq xo'jaligi sohasidir. Masalan, obikor dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, chorvachilik va hokazo. Boshqa bir qancha yondashuvlarda landshaftga nisbatan ta'sir kuchi kuchliroq bo'lsa, qishloq xo'jaligida biroz kuchsiz va landshaft komponentlarining modifikatsiyalanishi bilan ahamiyatlidir [2, 12;].

Bundan tashqari biror hududning muhandislik-qurilish sharoitlarini baholashda tabiiy sharoitlarning xususiyatlari, geologik, geomorfologik strukturasi, yer osti va yer usti suvlari kabi jarayon, hodisalar, shuningdek inson-ta'sirida tabiiy muhitda qanchalik o'zgarishlar sodir bo'lganligi bilan belgilanadi [1, 9;]. Mazkur tadqiqotda inson ta'siri ostida tabiiy muhit qanday o'zgarishlarga ro'baru bo'lganligi xususida keng yoritilgan, faqat kelajakda yana qanday o'zgarishlarga uchrashi, uning ko'lamini, oldini olish yo'llari kabi savollarga to'laqonli javob berilmagan. Landshaftning o'tmishdagi va hozirgi holati bo'yicha ma'lumotlar hamda tashqi ta'sir kuchining intensivligi umumlashtirilib kelajakdagi o'zgaruvchan shakllarga xulosa olinadi. Bu esa Atrof muhit muhofazasini saqlashda sanoatga bo'lgan yondashuvi uning barcha tarmoqlarida landshaft-ekologik konsepsiyasi bo'yicha tuzilishi maqsadga muvofiq. Agar hududning tabiiy xom-ashyo resurslari, qazilma boyliklaridan foydalanish maqsadida baholash ishlari olib borilsa, landshaftlarni asosan – geologik, geomorfologik, yer usti va yer osti suvlari, aholi manzilgohlaridan uzoqligi, tabiatga zararli ta'sir kuchi singari omillarga bog'liq o'rganiladi. Jumladan yurtimizda ham tog'-kon sanoati rivojlangan bo'lib, landshaftlarning o'zgarishi hisobiga bir qancha zaruriy choralarni ko'rishimiz lozim bo'ladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish rejasida-zaxirani aniqlash va muddat belgilash, har yili ta'sir indeksini belgilangan meyordan oshirmaslik, maksimum va minimum ko'rsatkichlarni tartibga solish, ta'sir kuchini kesuvchi faktorlardan foydalanish orqali zararni kamaytirish, yaqin hududdagi aholiga ta'sir sezilmasligi, o'simlik va hayvonot olamiga bezarar yo'llarni ishlab chiqish kabi savollar o'rtaga tashlanadi. Ta'sir kuchi qanchalik katta bo'lsa, oldini olish uchun ehtimoliy hududlarda yashil koridor tashkil etish choralari qo'llaniladi. Biroq bu muammoni to'laqonli oldini oladi degani emas albatta.

Antropogen ta'sirlarga chidamlilik darajasini aniqlash yondashuvlarning landshaftlarni keyingi "hayotida" juda muhimdir. Hududning ekologik tabiiy holatini saqlashda landshaft xaritalaridan foydalanish, muhofaza ostiga olingan landshaft xillari bilan aloqadorligini qiyosiy solishtirish orqali o'rganilib, tipik va noyob bo'lgan tabiiy komplekslar alohida belgilanadi [9;]. Bu esa ekologik "nochor" bo'lgan hududlarni aniqlash imkonini oshiradi. Mazkur holatda yangi qo'riqlanish, muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan hududlarni belgilashda asos bo'ladi.

Turizm va rekreatsiya sohalari landshaftlardan foydalanish amaliyotining antropogen yuklarga chidamliligi, ma'daniy-tarixiy, landshaft-rekreatsion salohiyati yondashuvi asosida bajariladi. Landshaftlarning baholash ko'rsatkichlari, hududdagi geotizimlarni GAT orqali

GEOGRAFIYA

rejalashtirish, tabiiy geografik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bularga: relyef, mikroiklim xususiyatlari, gidrologik tarmoqlari va b. kiradi. Ushbu elementlar asosida turizm va rekreatsiyaning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Ushbu landshaft yondashuvida tabiiy jarayonlarning barqaror rivojlanishi va antropogen omillar ta'sirida barqarorlikni yo'qolishini oldini olishga doir zarur choralar ko'riladi. Antropogen ta'sir kuchi qanchalik ortgani sari landshaftlardagi o'zgarishlar shunchalik ortadi. Shu bois ushbu yondashuvda "hudud sig'imi", zichlik koeffitsienti inobatga olinishi va yashil zonalar tashkil qilinishi bilangina muammoni qisman yechish mumkin. Yashil yo'llar landshaft strukturasining chiziqli komponentlari sifatida, shuningdek, yashil infratuzilmaning muhim elementlari bo'lib, ko'p funktsiyali maqsadlarda rejalashtirilishi, loyihalashtirilishi va boshqarilishi mumkin bo'lgan bio-koridorlarni ifodalaydi [7,8;]. Ular geotizimning chidamliligini oshirishi, aholi jamoatchiligi orasida - landshaftlarda barqarorlikni rivojlantirish boshqaruvi va qo'llab-quvvatlash ekologik ta'sirni yumshatishi mumkin. Landshaftlarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, barcha yondashuvlarning integratsiyalashuvi va tizimli yondashuv bilan olib boriladi. Xususan, yondashuvlarda hududga oid ma'lumotlar, xaritalar, sxemalar ishlab chiqiladi. Landshaftlar bo'yicha olingan tahliliy xulosaga oid materiallar tizimlashtirilib doimo yangilanib boriladi.

XULOSA

Landshaftlardan foydalanishda, tizimli landshaft yondashuvi asosida tabiiy geografik hududning sohalar kesimida rayonlashtirilishi, atrof muhit muhofazasi va yana bir qancha muammolarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan rejalashtirish bilan hududda boshqaruv mexanizmi va rivojlanish xususiyatlari qamrab olinadi. Landshaft komplekslaridan foydalanishda yondashuvlarning turfa xilliligi, yashil yo'lak tashkil etilishi evaziga tizimlashtirilganda tabiiy xususiyatlari saqlanadi. Yondashuv sohalarining tizimlashgan xaritaga ega bo'lishi va atrof muhit muhofazasiga doir baholash ishlari yuqori aniqlikda qilingan bo'lishi shart. Chunki ba'zida vaqt omili sababli o'z davrining yirik, mukammal loyihalari eskirib, talab darajasida bo'lmay qoladi. Foydalanish shartlari to'liq va mukammal bajarilgan yondashuvlarda baholash ishlari hayotga tadbiq etilishi hamda tabiatga xolisona munosabatda bo'lishga tayanadi. Ayniqsa, qo'riqxonalar, milliy bog'lar, yoki yashil koridorlar tashkil etilishi muammolarni to'liqligicha tugatolmasada, xo'jalik faoliyatini shakllantirish borasida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Беручашвили Н.Л. Методы комплексных физико- географических исследований / Н.Л.Беручашвили, В.К.Жучкова. – М.: Изд-во МГУ, 1997. – 320 с <https://core.ac.uk/download/pdf/76001805.pdf>
2. Abdulqosimov A., Yarashev K., Meliyev B. Landshaft komplekslarini kartalashtirishning dolzarb muammolari // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 1-son (95). – Samarqand, 2016. 100-104 b.
3. Jeffrey Sayera,1, Terry Sunderlandb, Jaboury Ghazoulc, Jean-Laurent Pfundd, Douglas Sheilb,e,f, Erik Meijaardb,g,h, Michelle Ventera , Agni Klintuni Boedhihartonoa , Michael Dayb , Claude Garciab,i, Cora van Oostenj , and Louise E. Buckk. "Ten principles for a landscape approach to reconciling agriculture, conservation, and other competing land uses" SPECIAL FEATURE: PERSPECTIVE. Proceedings of the National Academy of Sciences May 2013. Improvement and Implementation of a High Performance CQRS Architecture <https://ieeexplore.ieee.org/document/8101372>
4. Konvey, GR (1985). Agroekotizim tahlili. *Qishloq xo'jaligi boshqarmasi*, 20(1), 31–55. [https://doi.org/10.1016/0309-586X\(85\)90064-0](https://doi.org/10.1016/0309-586X(85)90064-0)
5. Hilborn.R., Walters.CJ va Ludwig.D. (1995). Qayta tiklanadigan resurslardan barqaror foydalanish. *Ekologiya va sistematikaning yillik sharhi*, 26 (1),45-67. <https://doi.org/10.1146/annurev.es.26.110195.000401>
6. Mark.Antrop@rug.ac.be Antrop Geografiya bo'limi, Gent universiteti, 281 Krijgslaan, S8, B-9000 Gent, Belgiya,
7. Родоман Б.Б. «Поляризованный ландшафт»: полвека спустя // Известия Российской академии наук. Серия географическая. 2002. № 3. С. 467–480.
8. Баранов В.А. «Теоретические основы экологической оптимизации ландшафта» Электронный научно-практический журнал // Сельское, лесное и водное хозяйство. 2012. № 9 [Электронный ресурс]. URL: <https://agro.snauka.ru/2012/09/520>
9. Соколов А.С. "Ландшафтное разнообразие: теоретические основы, подходы и методы изучения". <https://cyberleninka.ru/article/n/landshaftnoe-raznoobrazie-teoreticheskie-osnovy-podhody-i-metody-izucheniya>
10. Jakub Melicher, Jana Špulerová. "Application of Landscape-Ecological Approach for Greenways Planning in Rural Agricultural Landscape" *Environments* 2022,9,30. <https://doi.org/10.3390/environments9020030>

11. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. –М.: Высшая школа, 1979. –222 с. 91-109 с.
12. Xasanov P.A. "Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va agrolandshtlar o'rganilish tarixi"//Экономика и социум, г. Саратов, ул. Волжская, 28. №12 (115), 2023 www.iupr.ru
13. [Jianguo Vu.](#), [Richard Xobbs.](#) Landscape ecology: The-state-of-the-science. DOI:[10.1017/CBO9780511618581.016](https://doi.org/10.1017/CBO9780511618581.016) In book: Key Topics in Landscape Ecology (pp.271-287)
14. Sh. S. Zokirov, X. R. Toshov "Landshaftshunoslik" Toshkent. 2016. 130-138 b.
15. Назаров И.К. География фанининг асосий муаммолари. Мухаррир. Тошкент-2013. 56 б.
16. www.eco.gov.uz